

Samarqandda "World Triathlon Championship Series – 2026" va "World Triathlon Para Series – 2026" musobaqalari boshlandi

Uy-joyga muhtoj yosh oilalarga ipoteka kreditlari ajratiladi

Samarqandda yangi muzey quriladi

"O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining eng faol deputati" ko'riktanlovining respublika bosqichi o'tkazildi



# Zarafshon

Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

2026-yil 25-aprel, shanba, 38 (24.218)-son

O'zbek xalq maqoli

Yomg'ir bilan yer ko'karar, mehnat bilan - el

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz

https://www.facebook.com/zarnews.uz

@zarnews\_uz

https://twitter.com/zarnews\_uz

info@zarnews.uz

## KRIMINOGEN VAZIYAT TAHLILIDAN

### mahallalarning yangi chegaralarini belgilashgacha

23-aprel kuni xalq deputatlari viloyat Kengashining yigirma to'qqizinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. Kengash raisi Sh.Negmatov boshqargan sessiyada viloyat ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bilan bog'liq yigirmadan ortiq masala ko'rib chiqildi.

Xususan, davlatimiz rahbarining 2025-yil 18-martdagi "Respublikadagi kriminogen vaziyatni kundalik tahlil qilish faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi yuzasidan yilning birinchi choragida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan viloyat prokurorining birinchi o'rinbosari S.Bozorning axboroti eshitildi.

Qayd etilishicha, mazkur yo'nalishda tegishli organlar va jamoat tashkilotlari hamkorligida keng ko'lamli ishlar olib

borilmoqda. Shunga qaramay, yilning birinchi choragida viloyatda 3233 ta jinoyat hisobga olingan va ularning 757 tasini oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar tashkil etgan. Aholini tashvishga soladigan va keng muhokamalarga sabab bo'ladigan bosqinchilik, qotillik, firibgarlik, oddiy va o'lim bilan bog'liq yo'l-transport hodisalari, jinoyat sodir etgan shaxslar soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan kamaydi.

(Davomi 2-sahifada) >>>

Joriy yil viloyatimizdagi 28 mahallaga "Yangi O'zbekiston qiyofasidagi mahalla" maqomi berilib, ularning har biriga 5 milliard so'mdan mablag' ajratilmoqda. Bu orqali mahallalarda aholining yaxshi yashashi va tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

Davlatimiz rahbarining "Alohida tuman va mahallalarni aholining yashashi va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun namunalari hududga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida tutash mahallalarni bog'lovchi markaz vazifasini bajaradigan, yirik avtomobil yo'llari yoki chegara hududlariga yaqin joylashgan, aholisi zich va ko'p, infratuzilmasi tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay bo'lgan hududlar tanlab olinishi belgilangan.

O'zbekiston mahallalar uyushmasi Pa-yariq tuman bo'limi boshlig'i Zoir Turdiyevning ma'lum qilishicha, "Islohotlar shtabi" xodimlari hamkorligida tumandagi mahallalarning infratuzilmasi, ishsizlik darajasi va iqtisodiy imkoniyatlari tahlil qilinib, qarorda belgilangan talablarga asosida O'zbekiston, Choshtepa hamda tuman hokimi tashabbusi bilan Bahor mahallalari Yangi O'zbekiston qiyofasidagi mahalla sifatida tanlanib, ichki yo'llarni asfaltlash, piyoda va salomatlik yo'laklarini barpo etish, elektr, ichimlik va sug'orish suvi tarmoqlarini yaxshilash, savdo va xizmat ko'rsatish sohaslarini kengaytirish, sanoat zonalarini tashkil etish ishlari boshlangan.

– Tumanimizdagi Xo'ja Ismoil, Xalqobod, Elnazar va Zarafshon mahallalari bizning hududga tutashgan bo'lib, bu hamkorlikni rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratadi, – deydi Choshtepa mahallasi raisi Husan

2026-yil – O'zbekistonda "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili"

## "Yangi O'zbekiston qiyofasidagi mahalla"larda ishlar boshlandi



G'aniyev. – Mahallamiz asosan dehqonchilik va chorvachilikka ixtisoslashgan. Prezident qaroriga muvofiq, mahalla infratuzilmasini yanada yaxshilash maqsadida bu yil 5 milliard so'm mablag' ajratilmoqda va turizmni rivojlantirish qo'shimcha drayver sifatida belgilandi. Mahallamiz yaqinda ochilgan Imom Buxoriy majmuasidan taxminan 4 kilometr masofada joylashgan. Shu bois ziyoratgohga keluvchi sayyohlar uchun qulaylik yaratish maqsadida bu yil xizmat ko'rsatish nuqtalari hamda oilaviy mehmon uylarini tashkil etish rejalashtirilgan. Buning uchun hududda zarur sharoit va tashabbuskor tadbirkorlar ham bor.

– Mahallamiz tuman markazidan 14 kilometr

uzoqlikda joylashgan bo'lib, beshta mahallani bog'laydi, – deydi O'zbekiston mahallasi raisi Umrzoq Jo'rayev. – Qariyb olti ming aholi istiqomat qiladi. Ichki yo'llarni asfaltlash, piyodalar va salomatlik yo'laklarini barpo etish, elektr, ichimlik hamda sug'orish suvi tarmoqlarini yaxshilash uchun 5 milliard so'm mablag' ajratildi. Loyiha doirasida mahalliy tadbirkorlar bilan hamkorlikda savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari, choy qadoqlash fabrikasi, o'quv markazi hamda kafelar tashkil etish ko'zda tutilgan. Eng muhimi, bu loyihalar ishga tushirilishi natijasida infratuzilma yaxshilanib, tadbirkorlik salohiyati ortadi va yuzdan ziyod doimiy ish o'rni yaratiladi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Mulohaza, munozara

## XUSUSIY MAKTABLAR

davlat maktablaridan nimasi bilan farq qiladi?

– Qator yillar ta'lim sohasida mas'uliyatli vazifalarda mehnat qildim. Yetarli tajribaga ega bo'lgach, xususiy maktab ochdim. Ushbu maktab ochilganiga o'n yil bo'ldi. Albatta, bugun ayrim davlat maktablari ham sharoit nuqtai nazaridan xususiy maktablardan qolishmaydi. Lekin bolalar qamrovi davlat maktablarida ko'proq, ba'zi sinflarda 40 nafargacha bola o'qiydi. Xususiy maktablarda esa bir sinfda ko'pi bilan 20 nafar o'quvchi ta'lim oladi.

40 nafar bolaga dars bergandan 20 nafar bolaga dars berish yengilroq. Ikkinchi-

dan, ko'proq maosh to'lanadi. Bundan tashqari, xususiy maktabda o'qituvchining vaqtini oladigan har xil hisobotlar, yig'ilish va tadbirlar yo'q.

Biz bir narsaga pul to'lasak, uning qadriga yeta boshlaymiz. Ayrim ota-onalar davlat maktablarida hatto bolasini kim o'qitayotganini bilmaydi. Ammo xususiy maktablarda ota-onalar pul to'layapman-ku, nega bolam yaxshi o'qimayapti, deb talab qiladi. Tushgacha davlat ta'lim standartlari asosida darslar o'qitilsa, tushlikdan so'ng bolalarning ogini o'stirishga mo'ljallangan qiziqarli matematika, kimyo, raqs, sport, rasm kabi to'garak mashg'ulotlari o'tiladi. Asosiysi, o'quvchi uyga vazifani maktabda tayyorlab ketadi. Shuningdek, o'quvchilarga nonushta, tushlik, kechga yana yegulik beramiz.

Xususiy maktabga farzandini bergan ota-ona biladiki, bolaning qorni to'q, usti but, himoyalangan, har xil zararli yeguliklarni sotib olmaydi va tinchgina uyiga keladi. Shu tomonlari bilan davlat maktablaridan farq qiladi.

Lekin masalaning ikkinchi tomoni bor. Bizda biror yo'nalishda pul bor desa, hamma shu sohada o'zini sinab ko'radi. Biroq chumchuqni ham qassob so'yishi kerak. Tadbirkor maktab yoki bog'cha ochib, o'zi rahbarlik qilsa, undan yomoni yo'q. Tadbirkor faqat tushum, foydani o'ylaydi, ta'lim sifati bilan ishi bo'lmaydi, shuning uchun

u o'z tadbirkorligini qilsin, lekin maktab bo'ladimi, maktabgacha ta'lim sohasimi yoki o'quv markazi ochadimi, unga o'sha sohaning mutaxassisini olib kelish kerak.

Bundan tashqari, maktabimizda inklyuziv sinflarimiz bor, ularda sog'ligida nuqsoni bor bolalar sog'lom bolalar bilan birga ta'lim oladi. Ularga maxsus o'qituvchi ishga qabul qilingan. Kuning birinchi yarmigacha sog'ligida nuqsoni bor bolalar sog'lom o'quvchilar bilan birga ta'lim olsa, tushlikdan keyin defektolog o'qituvchi ular bilan alohida shug'ullanadi. Ularning nutqi, tafakkuri o'sishiga yordam beradi.

– Ota-ona bolaning ta'limi uchun pul to'laganidan keyin nazoratni kuchaytiradi, deyasiz. Xususiy maktabda yaxshi o'qimaydigan o'quvchilar bo'ladimi?

– Albatta, "Pulini oling-da, o'qiting", deyilgan ota-onalar bo'ladi. Bola qaysi maktabda o'qishidan qat'i nazar, avvalo, unga tarbiyasi ota-ona, ta'limni maktab beradi. Ikkalasi bir-birini to'ldirsa, taraqqiyotga erishiladi. Ta'lim bo'la turib, tarbiya bo'lmasa, qumga suv quyilganday bo'ladi.

Bizda bitta qusur bor – aybimizni tan olmaymiz. Hamma huquqini talab qiladi, ammo majburiyatini unutkan. Ayrim ota-onalar haftada yoki oyda bir marta kelib, farzandining o'qishini surishtiradi. Ba'zilari farzandimni maktabga topshirdimmi bo'ldi, ertaga bolam yaxshi odam bo'ladi, deb o'ylaydi. Ayniqsa, xorijiy davlatlarda



mehnat qilib yurganlar farzandiga barcha sharoitni yaratadi, uni xususiy maktabga beradi, ammo o'zi uzoqdaligi uchun nazorat qilolmaydi. Bobo-buvisi nazoratidagi bolalar ota-onasi uzoqdaligi uchun avaylanadi. Bolani avaylash emas, unga to'g'ri tarbiya berish kerak. Bola oilada yetarli tarbiya olmasa, sharoiti yaxshi maktabda o'qisa ham bilim olishga qiziqmasligi, o'qimasligi mumkin.

Shu o'rinda yana bir narsani aytay. Ba'zilar xususiy maktabda faqat boylarning bolasi o'qiydi, deb o'ylaydi. Bizda 25 nafar kam ta'minlangan va 5 nafar sog'ligida nuqsoni bor oila farzandlari bepul o'qiydi.

– Hozir Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarda o'quvchilarning qo'l telefoni darsga halaqit bermasligi uchun olib qo'yilarkan. Sizning maktabingizda-chi?

– Rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning maktabda qo'l telefonidan foydalanishi taqiqlanayapti. Bizning maktabimizda ham qo'l telefonlari ertalab olib qo'yiladi va kechki payt uyiga ketayotganida beriladi.

(Davomi 3-sahifada) >>>





## XUSUSIY MAKTABLAR

## davlat maktablaridan nimasi bilan farq qiladi?

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

## - Sizningcha ta'limdagi og'riqli masala nima?

Bugun yoshlarimiz xorijiy tillarni o'rganyapti, xalqaro darajadagi sertifikatlar o'lyapti. Nima uchun? Jahon adabiyotini asl tilida o'qish uchunmi? Yo'q! Afsuski, yoshlar chet elga bilim olish uchun emas, ko'proq pul topish, ishlash uchun ketishni xohlayapti. Ilgari yoshlar kosmonavt, olim, injener kabi kasb egalari bo'lishni istardi, hozir o'g'il bolalar quruvchi, tish do'xtri, qiz bolalar esa salonchi bo'laman, deydi. Chunki bular daromadli kasb emish. Bilimning qadri tushib ketdi. Ta'limdagi og'riqli muammo mana shu.

## OTA-ONALAR NIMA DEYDI?

Maktabdagi shart-sharoitlar bilan tanishar ekanmiz, shinamligi, sinflarda bolalar sonining standart darajada ekan, oshxonada mazali taomlar tayyorlanayotganiga guvoh bo'ldik. Albatta, har qanday ota-ona farzandining mana shunday shart-sharoitga ega maktabda o'qitishni istaydi. Ammo xususiy maktabning o'ylab to'lovini har qanday ota-onaning cho'ntagi ko'tarmaydi. Samarqand shahrini misol qilib oladigan bo'lsak, bu yerda xususiy maktablarga bir bola uchun o'rtacha 3,5 milliondan 5 million so'ngacha to'lov qilinadi. Shuning uchun ham xususiy maktablar aholi gavjum shahar yoki tuman markazlarida ochilgan. Qishloq joylarda ota-ona bunday pul to'lab bolasini o'qitilmaydi.

Turmush o'rtog'im ikkimiz kun bo'yi ishda bo'lamiz, shuning uchun farzandimizni xususiy maktabga berdik, - deydi D.Rashidova. - Chunki bolam darsdan keyin qarovsiz qolmaydi, tushlikda issiq ovqat, ertalab va kechda nonushta beriladi, xavfsizligi ta'minlangan, bolamdan xavotirlanmayman. Yanayam yaxshi tomoni darslarini maktabning o'zida tayyorlab keladi. Kechki payt birgalikda kitob o'qiyamiz, sayr qilamiz, bolamning fikrlashini oshirishga mo'ljallangan o'yinlar o'ynaymiz. Farzandini xususiy maktabga berish uchun ota-onaning daromadi yaxshi bo'lishi kerak. Bizdek kunduzi uyida bo'lmaydigan ota-onaga xususiy maktab ma'qul.

Men farzandimni tumanimizdagi xususiy maktabga berdim, - deydi O.Nasimova. - O'g'lim ungacha Rossiyaning Vladivostok shahrida o'qigandi. Maktab negadir o'g'limga yoqmad, uning aytishicha, bu yerda o'qitilayotgan darslarni u allaqachon o'zlashtirgan ekan. Shuning uchun o'g'lim ixtisoslashtirilgan maktabga tanlov asosida o'qishga kirdi. Hozir maktab sharoiti va ta'lim dasturlaridan mamnun.

Qizimizni 11-sinfda xususiy maktabga berdik, - deydi qo'shrabotlik Nilufar Nazarova. - Ertaroq bersam bo'lar ekan. Sababi, qizim tushgacha maktabga, keyin qo'shimcha darslarga qatnashiga to'g'ri keldi. Xususiy mak-

tabda biologiya, kimyo, ona tili va adabiyot kabi fanlar chuqurlashtirib o'qitiladi. Qizim shu yil maktabni bitirib, tibbiyot institutiga o'qishga kirmoqchi. Shuning uchun bizga xususiy maktabdagi ta'lim ma'qul bo'ldi.

## O'QITUVCHI FIKRI QANDAY?

Xususiy maktab haqida o'qituvchilarning fikrlari qanday? Aslida ham xususiy maktab orzu qilgulikmi? - Xususiy maktabda o'qituvchilarga faqat ixtisoslashgan fanlardan dars o'tiladi va maktab darsliklaridan kamida 6 oy ilgari ketadi, - deydi ismi sir qolishini istagan o'qituvchi. - Natijada o'qituvchilar 6-7-sinfda o'qiyotgan paytdayoq sertifikatlariga ega bo'la oladi. Yana bir yaxshi tomoni, o'qituvchilar uchun ortiqcha hujjatbozlik qilishmaydi. O'zlarining ish rejasini taklif qilib, shu asosda dars o'tishadi. Xonalardagi sharoitlar davlat maktablariga qaraganda yaxshi.

Ammo xususiy maktabning ham bir qator kamchiliklari bor. Masalan, o'qituvchilar boshqa fanlardan boshlang'ich tushunchalarni bilmaydi. Davlat belgilab qo'ygan ish reja bilan yurmaydi, ya'ni o'qitishi shart bo'lgan fanlarni dasturdan olib tashlaydi.

Xususiy maktabda ham ikki bahoga o'qiydigan bolalar bor. Ularni o'qitish o'qituvchilar uchun ancha qiyinchilik tug'diradi. Rahbariyat ikkichi o'qituvchilarning o'zlashtirishini yaxshilashni o'qituvchilardan talab qiladi.

Davlat maktablarida o'qituvchi tushlikkacha darsini o'tib, keyin o'z ustida ishlaydi. Xususiy maktabda esa o'qituvchi kun bo'yi bolalar bilan bo'ladi, dars soatlari farq qilsa ham o'ylab maoshi davlat maktabi bilan deyarli bir xil to'lanadi. Shuning uchun xususiy maktablarda yuqori malakaga ega o'qituvchilar dars bermaydi, aksincha ular davlat maktabini afzal ko'rishadi. Bo'lsa ham bunday o'qituvchilar juda kamchilikni tashkil qiladi. To'g'ri, malakali, bilimli o'qituvchilar davlat maktabidan tashqari xususiy maktabda ham ishlaydi. Chunki maktabda 30 soatdan ziyod dars berilmaydi.

Bundan tashqari, xususiy maktab rahbari tadbirkor bo'lsa, u ishchi-xodimlar bilan hech qanday shartnoma tuzmaydi. Istalgan vaqt xodimni ishdan haydab yubora oladi. Yana bir yomon

tomoni o'qituvchilarga ta'vil puli berilmaydi. Uch oy yozda o'qituvchilar daromadsiz qoladi. Shuning uchun o'qituvchilar juda tez almashadi, aksar o'qituvchilar - talabalar.

Xususiy maktabda ishlagan o'qituvchilar kun bo'yi dars o'tgani bois o'z ustida kam ishlaydi, natijada sertifikat, malaka toifasini, ayol o'qituvchilar dekret puli olmaydi.

Yuqorida xususiy maktablar haqida yaxshi taassurotga ega edik. Balki ushbu o'qituvchi ishlayotgan xususiy maktabda ahvol shundaydir. Shuning uchun ham xususiy maktabning nomini keltirmadik. Ammo haqiqatda yaxshi xususiy maktablar ham bor.

- "Registon" xususiy maktabida rus tilidan yordamchi o'qituvchi bo'lib ishlayman, - deydi Nigina Abdullaeva. - Avval Samarqand shahridagi 20-umumiy o'rta ta'lim maktabida ishlaganman. Bakalavriatdan tashqari magistraturani ham bitirganman. Davlat maktablaridagi muammolardan biri pensiya yoshiga yetgan o'qituvchilar yoshlarga o'rin bermaydi, ishlab yuraveradi. Shuningdek, sinflarda o'qituvchi bo'lishi kerak. Xususiy maktabda esa bola soni kam, bir sinfda ko'pi bilan 24 nafar o'quvchi qabul qilinadi, ularning qobiliyatiga qarab uchta sinfga bo'lib o'qitiladi. Masalan, a'lochilar, o'rtacha bilimli va bilimli pastlarga alohida dars beriladi. Shuningdek, maktabimizda rus tili, ingliz tili, matematika va IT fanlari chuqurlashtirib o'qitiladi. Agar o'quvchining bilimlari pasayib ketsa, u bilan alohida o'qituvchi shug'ullanadi. Maktabda o'quvchilarga besh mahal, o'qituvchilarga uch mahal ovqat beriladi. Buning uchun o'qituvchining maoshidan ushlab qolinmaydi.

Bundan tashqari, bizda darsni qanday o'tishi, bolalarning o'zlashtirishiga qarab har bir o'qituvchining reyting bahosi hisoblab boriladi. Har chorakning oxirida o'qituvchilar reytingi e'lon qilinadi. Eng yuqori reyting 25 ball bo'lib, to'rt chorakda ham yuqori ball to'plagan o'qituvchilarga yilning oxirida ikki kishilik Dubayga sayohat (1-o'rin uchun), mobil telefon (2-o'rin uchun) va pul mukofoti (3-o'rin uchun) beriladi.

Xurshida ERNAZAROVA,  
"Zarafshon" muxbiri.

Globalashuv, raqamli transformatsiya va madaniyatlararo integratsiya kuchayib borayotgan bugungi davrda xorijiy tillarni samarali o'qitish masalasi jamiyat taraqqiyotining strategik omiliga aylanmoqda. Xalqaro muloqot, ilm-fan almashinuvi hamda professional ijtimoiy darajalarni ta'minlashda xorijiy tillar o'rni tobora ortib bormoqda. Shu bois tillarni o'qitishda innovatsion metodikalarni joriy etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash va ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

## Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion metodikalar

Shu bois joriy yilning 29-30-aprel kunlari Samarqand davlat chet tillar institutining innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodikasi hamda ingliz tili nazariy aspektlari kafedralari tomonidan Ipak yo'li mamlakatlari universitetlari xalqaro assotsiatsiyasi - Silk-Road Universities Network (SUN) bilan hamkorlikda "Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion metodikalar: global tendensiyalar va Ipak yo'li universitetlari tajribasi" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tashkil etilmoqda.

Anjumaning dolzarbligi shundaki, u xorijiy tillarni o'qitishda yuzaga kelayotgan zamonaviy muammlar - raqamli muhitda ta'limni tashkil etish, sun'iy intellektidan samarali foydalanish, talabaga yo'naltirilgan yondashuvlarni joriy etish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish kabi masalalarni ilmiy asosda muhokama qilish imkonini yaratadi. Ayniqsa, tadbir Ipak yo'li hududidagi universitetlar ta-

jribasini umumlashtirish orqali mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, yagona ilmiy-ta'limiy makonni shakllantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli. Muhokamalarda Amerika, Koreya, Ozarbayjon, Tojikiston, Qozog'iston, Rossiya, Indoneziya, Hindiston kabi davlatlardan, shuningdek, respublikamiz oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlaridan yetakchi olimlar, o'qituvchilar, yosh tadqiqotchilar hamda mutaxassislarining ishtiroki kutilmoqda. Bu esa anjumaning keng qamrovli, xalqaro miqyosdagi ilmiy muloqot maydoni sifatida ahamiyatini oshiradi.

Anjuman yalpi majlislar, shu'ba yig'ilishlari hamda amaliy seminarlar shaklida tashkil etiladi. Ishtirokchilarga sertifikatlar taqdim etilishi, eng yaxshi ilmiy maqolalar to'plam shaklida nashr etilishi rejalashtirilmoqda.

Z.XAMRAYEVA,  
SH.RUSTAMOVA,  
SamDChTI kafedra mudirlari.

## Diniy mazmundagi materiallardan foydalanishda ehtiyotkorlikni unutmang!

Mamlakatimizda diniy ekstremistik va terroristik g'oyalar bilan yo'g'rilgan adabiyotlarni olib kirish, tayyorlash, saqlash va tarqatish taqiqlanganiga qaramasdan, ayrim fuqarolarning bilib yoki bilmay ushbu jinoyatni sodir etayotgan holatlari uchrab turibdi.

Viloyat transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi tezkor xodimlari o'tkazgan tadbirda Navoiy viloyati Xatirchi tumanida yashovchi fuqaro I.R. o'ziga tegishli telefon apparatining "Instagram" ijtimoiy tarmog'idagi sahifasida Abdulloh Zufarning taqiqlangan diniy ma'ruzasini eshitib, saqlab kelayotganligi aniqlandi.

Namangan viloyati Uychi tumani fuqaro N.H. esa shaxsiy telefonida Sodiq Samarqandiyning taqiqlangan diniy ma'ruzasini saqlab kelayotganligi ma'lum bo'ldi.

Ushbu fuqarolarning tegishli telefon apparatlarini hujjatlashtirilib, ularga nisbatan qo'shimcha tergov-surishtiruv ishlari amalga oshirilmoqda.

Farrux MO'MINOV,  
viloyat transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi tezkor xodimi.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada ikki marta - chorshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

## DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Vaxidov Madjidga (1998-yil 8-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko'chasi.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Yusupov Nodir Ulukovichga (2023-yil 1-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Jumaniyazova Gulchira Razumetovnaga (2025-yil 25-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Musinova Bonuga (2020-yil 23-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Shamsiyeva Xafiza Sayfiyevnaga (2024-yil 15-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Muxiddinov A'lam Amriyevichga (2025-yil 23-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-"B" uy.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Mamanazarov Eshquvatga (2021-yil 24-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Abduraxmanov Xudayberdiga (2005-yil 22-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Usarova Gulfiyaga (2025-yil 10-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Samatov Ziyoga (2006-yil 30-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasida marhum Imamkulov Zafar Ismatovichga (2025-yil 17-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Farhod ko'chasi, 34-uy.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Isayeva Saodat Xushvaktovnaga (2021-yil 26-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 117-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasida marhum Axtamov Saloxitdin (2025-yil 30-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Sug'diyona maskani, 14/12-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Asanova Larisa Nikolayevnaga (2025-yil 3-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Nodirbegim ko'chasi, 5/1-uy.**

**BEKOR QILINADI**  
Samarqand markaziy o'rmon xo'jaligi boshqarmasida qarashli 2018-yilda ishlab chiqarilgan, davlat raqam belgisi 30 FA 004 bo'lgan "Belarus-80.1" rusumli traktorning texnik pasporti yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

# Ko'ksaroy da

## o'tkazilgan qazishma ishlari natijasida nimalar aniqlandi?

Amir Temur saroyining joylashish o'rnini kompleks tadqiq qilish, ark hududida bunyod etilgan Ko'ksaroy o'rnini aniqlash maqsadida Samarqand arxeologiya instituti olimlari tomonidan tadqiqot olib borildi. Bir yil davom etgan qazishma ishlari avvalida hudud GPR yordamida tadqiq etilib, 25 dan ziyod joyda shurflar tashlandi.



Biroq hudud o'tgan vaqt davomida kuchli o'zgarishlarga uchraganligi, turli xil kommunikasiya tizimlari ishga tushirilganligi uchun tadqiqot yetarli samara bermadi. Arkning sharqiy qismida olib borilgan qazishmalar ushbu hudud kuchli buzilganligi, 2-3 metrga qadar qurilish chiqindilari borligi va keyingi 40-50 yil davomida surilganligi ko'rsatdi. Xususan, qazishma jarayonida hududdagi "Zilol baxt" restorani bog'i hududida yer sathidan 2-2,3 metr pastda 1880-yillarda bunyod etilgan kazarma pollari kuzatildi. Markaziy qismida olib borilgan qazishmalarda esa pishiq g'ishtdan qilingan poydevor devorlari, 2,5 metr chuqurlikda pishiq g'isht bilan qoplangan pol sathlari aniqlandi. Lekin bu hududlar tashqi ta'sirga uchraganligi sababli fragmentar holda saqlangan.

Dastlabki ma'lumotlar tahlili aniqlangan arxitektura qoldiqlari XIX asr ikkinchi yarmi bilan davrlashtirildi. Ya'ni, keyingi 150 yil davomida arkning ayrim joylarida yer sathi 2-2,5 metrga qadar ko'tarilganligi ko'rish mumkin. Yozma manbalar hamda kartografik ma'lumotlar tahlili, olib borilgan arxeologik qazuv ishlari va tadqiqotlar natijasi asosida quyidagi xulosalarni bildirish mumkin.

**Birinchi**, 1371-yilda bunyod etilgan Amir Temur arki — Arki oliya saltanat poytaxti sifatida Samarqandning bosh ma'muriy markazi sifatida shakllanib, davlat boshqaruvi, harbiy ishlab chiqarish, xazina saqlash va rasmiy marosimlarni amalga oshirishda muhim vazifalarni bajargan.

**Ikkinchi**, ark XVI asr oxiri XVII asr boshlaridan vayronaga aylanib, arkdagi Ko'ksaroy, Bo'stonsaroy o'z ahamiyatini yo'qotganligi tufayli vayronaga aylanishni boshlagan.

**Uchinchi**, XVIII asrda ark vayrona holatda bo'lib, bu Mir Muhammad Amin Buxoriy va Humuliy ma'lumotlari bilan tasdiqlanadi. Bu davrda Ko'ksaroyning faqat poydevori qolgan.

**To'rtinchi**, XIX asrdan boshlab qayd etila boshlangan Ko'ksaroy katta ehtimol bilan XIX asr birinchi yarmida Amir Shohmurod yoki uning o'g'li Amir Haydar davrida qurilgan.

Bundan tashqari, A.Vamberi, A.Xoroshxin kabi olimlar Ko'ksaroy bundan uzog'i bilan yuz yil oldin qurilgan degan ma'lumotni bergan.

**Beshinchidan**, 1982-yil hamda 2025-yil-da 2-2,3 metr chuqurlikda aniqlangan pishiq g'isht bilan qoplangan sath XIX asrga mansub Ko'ksaroy majmuasi bilan bilan bog'liq bo'lib, u XVII-XVIII-asr madaniy qatlamlari ustiga joylashgan.

**Oltinchidan**, XIX asrda bunyod etilgan Ko'ksaroy majmuasi Amir Temur davrida qurilgan saroy qoldiqlari ustiga qurilgan bo'lib, bu holat uni yer sathidan 4 metr chuqurlikdan izlash lozimligini ko'rsatadi.

**Yettinchidan**, Ko'ksaroy faqat bir bino emas, balki yirik majmua bo'lib, u hozirgi kunda katta ehtimol bilan "Zilol Baxt" restorani, uning atrof hududi va restoran oldidagi maydonni qamrab oladi.

### TADDIQOTLARNI DAVOM ETTIRISH KERAK

Amir Temur arki nafaqat Samarqand, balki butun Markaziy Osiyo shaharsozligi va davlatchilik tarixida muhim o'rin tutadi. U temuriylar davrida shakllangan markazlashgan davlat modeli, hokimiyat ramzlari va shahar muhiti o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni anglashda muhim ilmiy manba hisoblanadi. Ark hududini kompleks arxeologik o'rganish va ilmiy asoslangan konservatsiya qilish ishlari kelgusida qo'shimcha arxeologik va manbashunoslik tadqiqotlari o'tkazish zarurligini ko'rsatadi. Jumladan, Ko'ksaroy majmuasi o'rnini taxminan 150 metr radiusda joylashganligini hisobga olgan holda bir necha yilga mo'ljallangan qazishma ishlari olib borish, qazishma davomida aniqlangan bino poydevorlari asosida majmua va saroyning tuzilishiga aniqlik kiritish hamda uni vizual qayta tiklash, Ko'ksaroy bilan bog'liq mahalliy manbalar bilan birga, turk, xitoy hamda kartografik ma'lumotlar bilan ishlashni davom ettirish kerak.

**Mo'minxon SAIDOV,**  
Samarqand arxeologiya instituti direktori.

**Ba'zi insonlar tabiatan faolroq, tavakkalga moyil yoki muloqotga kirishuvchan bo'lishadi. Bu xususiyatlar tadbirkorlikda yordam berishi mumkin, lekin ular muvaffaqiyatni kafolatlamaydi. Agar faqat tug'ma qobiliyat hal qiluvchi omil bo'lganida, shunday xususiyatlarga ega barcha insonlar boy-badavlat bo'lib ketar edi.**

Tadbirkorlikda avvalo, g'oya, reja, sarmoya, marketing zarur. Chunki u tug'ma qobiliyat emas, amaliy ko'nikma, harakat bilan shakllanadi. Ba'zi insonlarda tavakkal qilishga tayyorlik, odamlar bilan tez chiqish, yangi g'oyalar ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ularni "tug'ma tadbirkor" deyishadi. Aslida esa, aksariyat taniqli tadbirkorlar xatolar orqali tajriba to'plashgan, kitob va kurslarda o'qigan, kichikdan boshlab, asta-sekin o'sgan. Amaliy ko'nikma orttirish uchun kitob o'qish yoki video ko'rish yetarli emas, har bir biznes vaziyati turlicha bo'ladi.

Masalan, birinchi marta savdo qilsangiz daromad kam, mijoz topish qiyin bo'ladi, lekin 5-10-martadan keyin qanday sotishni o'rganasiz, mijoz bilan gaplashish osonlashadi, foyda oshadi.

Tarixdagi ko'plab mashhur tadbirkorlar aynan shu yo'lni bosib o'tgan. Ularning aksariyati muvaffaqiyatga osonlik bilan erishmagan. Aksincha, ular ko'plab rad javoblari, moliyaviy qiyinchiliklar va hatto muvaffaqiyatsizlik bilan to'qnash kelgan. Lekin ularni boshqalardan ajratib turadigan jihat - bu taslim bo'lmaslik va harakatni davom ettirishdir. Bu esa tug'ma qobiliyadan ko'ra ko'proq iroda va intizom bilan bog'liq.

Shu o'rinda ko'plab xatolar ortidan muvaffaqiyatga erishgan tadbirkor tanishim Alisherni misol keltirmoqchi edim. U ancha vaqt tayyorlanib oliyohoda iqtisodiyot sohasida o'qidi, bir kichikroq tashkilotda ish boshladi. O'ylikni o'ylikka ulab, besh yil ishladi. Bir kuni ishdan ketganligini aytib qoldi. "Vaqt insonga berilgan ne'mat, undan har kim o'zicha foydalanadi, kim vaqtini behuda sarflaydi, kim undan unumli foydalanadi. Men iqtisodchi bo'la turib vaqtini arzon

### Mulohaza uchun mavzu

## Tadbirkorlik tug'ma qobiliyat u ishtiyok va malaka orqali yuzaga chiqadi



sarflasam buning uvoli bor.

U avval avtomobillar yuvish xizmatini tashkil qildi, yonidan do'kon ochib, ishga tushirdi. Qishloq joyda bo'lsa ham yaxshigina raqobat sabab avval boshda bir haftada bir necha mijoz kelgan paytlar ham bo'ldi, sabr, tajriba, qulay narxlar, boshqalardan afzal xizmat natijasida mijozlarini topdi.

### BOYLIGIMNI BOLALARIMDAN YASHIRDIM

Men ish boshlashdan oldin barcha qarzlardan qutuldim, oilam, farzandlarim va hatto ota-onamga ham moliyaviy holatimni bildirmadim, - deydi u. - Ota-onamga neki zarur bo'lsa, qanday holatda bo'lsa ham yetkazdim, ularning duolarini oldim, ishingga baraka kirdi. Iqtisodiy bilimlarim va orttirgan tajribamdan kelib chiqib atrofni, odamlar, bozorni kuzatdim, talabni o'rgandim. Vaqtimni to'g'ri taqsimladim, har qanday holatda ham rejadagi ishimni ertaga qoldirmadim, kunning chorak qismini fors-major yumushlar uchun ajratdim. Kuzatishlarimdan olgan xulosalarim asosida tadbirkorlikning ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sektorlarida bir nechta tarmoqlarini ochdim. Uy-joyimni o'zgartirmadim, hashamatli mashinaga qiziqmadim, pul tushgan payti shoshib, hissiyot bilan sarf qilmadim, bilaks ikkita narsaga pulim yetadigan bo'lganda bitta narsa xarid qiladigan bo'ldim. Bu odatim avvalo, kredit olish yoki kimdandir qarz

so'rashdan tiydi, doim ortiqcha mablag'im zaxirasi mavjudligini ta'minladi. Lekin qancha pulim borligi, mol-mulkim haqida farzandlarimga hech qachon aytmadim. Chunki ular kelajakda o'zlari mehnat qilishlari, mendagi pulga ishonib qolmasliklari kerak. Asosiysi bularning hammasiga tajribam bilan erishdim.

Bugungi kunda texnologiyalar rivojlangan davrda tadbirkorlikni o'rganish imkoniyatlari yanada kengaygan. Internet orqali bilim olish, bozorni o'rganish, hatto biznesni onlayn boshlash mumkin. Lekin bu imkoniyatlardan foydalanish uchun ham faqat bilim yetarli emas, harakat qilish kerak. Chunki g'oyalar qanchalik yaxshi bo'lmasin, ular amalga oshirilmasa, hech qanday natija bermaydi.

Tadbirkorlikda tez natija kutish noto'g'ri. Ko'p hollarda muvaffaqiyatga erishish uchun vaqt, mehnat va sabr talab qilinadi. Shuning uchun bu yo'lni tanlagan inson uzoq muddatli fikrlay olishi va qiyinchiliklarga tayyor bo'lishi kerak.

Ish boshlayotgan ko'p tadbirkorlar o'z bizneslarini boshlashlari bilan o'z hamma narsa soat mexanizmiga o'xshab yurib ketishi kerak deb o'ylaydi. Ammo tadbirkor qiyinchiliklar va umidsizliklarga tayyor bo'lishi lozim. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, negadir odamlar o'z biznesini rivojlantirish uchun mehnat qilishdan ko'ra kirmishdir biznesida yuqori lavozimga erishish uchun ko'proq harakat qilishga tayyor.

**O'ktam XUDOYBERDIYEV.**

### VIJDONNING BUGUNGI SO'ROG'I

O'z haq-huquqi uchun kurashmaydigan, e'tiroz bildirmaydigan kishilar nega sha'nini toptashayotganda ham jim turadi?

## Hofiz nidosi

Ishtixonlik musiqa fani o'qituvchisi Abdusamad Boltayev onalarni ulug'lagan mumtoz va lirik qo'shiqlari bilan vohada tanilgan.

Qo'sh qanotli iste'dod egasi keyingi yillarda Hofiz Samad taxallusi bilan she'rlar bitib, unga o'zi kuylar bastaladi. Uning baytlarida ijtimoiy olamning barcha jihatlari qamrab olingan. Ayniqsa, yoshlarga qaratilgan o'g'irlari juda ta'sirchan:

*Barcha narsang bo'lsa ham, o'g'lim,  
Ma'rifatdan bo'lmagil mahrum.  
Qarsillatib o'tkazamiz to'ylarni,  
Kitob yo'qdur, oraladim uylarni...*  
She'rlarida ijodkor o'sib ulg'aygan tog'u dashtlarning baxshiyona ruhi bor. Pand-nasihat shaklidagi bitiklari tili ni-

hoyatda sodda va o'ziga xos falsafiy. Hofiz Samadning she'rlarida samimiy ohanglar, xususan, millatimiz qadriyatlarini, inson ma'naviyati, ilm-ma'rifatga ehtirom samimiy ifoda topadi. Shu sababdanmi, uning she'rlari bugun yosh hofizlar tomonidan ham kuyga solinmoqda.

Ijodkorning yaqinda nashr etilgan "Baytlar sadosi yoxud hofiz nidosi" kitobidan o'rin olgan she'rlarga bir qur nazar tashlasangiz, diyonatli bir vatandoshimizning hayotiy xulosalari bilan tanishasiz.



### Turmush chorrahalarida

- Bashoratxon, o'zingmisan? Ko'rishmaganimizga ham ming yilcha bo'ldiyov! - Anzirat dugonasi bilan quchoqlashib ko'rishdi.

- Ha, turmush tashvishlari bilan bo'lib, keyingi paytlarda qadrdonlar bilan uchrashish ham ko'ngilga sig'may qoldi, dugonajon, - deya xo'rsindi Bashorat.

- Tinchlikmi, Bashorat? Betobmisan? - Xudoga shukur, soppa-sog'man, ammo ko'nglim g'ash. Erim kundan-kun sovib borayotganday. Ertalab ketadi, allama-halda qaytadi. Uf-f, charchadim, - deya yozg'irdi Bashorat.

- Birortasini topdimikan, deb ko'nglimga g'ulg'ula tushadi.

- Hm, qo'y, xafa bo'lma dugona, erkaklarning turgan bitgani tilsim. Bir qarasang, jonini bergudek boshiga ko'taradi, bir qarasang, kiyilgan paypoqdek uloqtirishadi, - deb hamdardlik bildirdi Anzirat. - Bir maslahat bersam, ko'ngilga olmaymanmi?

- Yug'-ey, dugonajon, sen menga yomonlikni ravo ko'rmaysan-ku!

- Unda quloq sol, eringni duoyibad qilish kerak!

- Nima? - Bashorat sergaklandi.



## QARMOQ

- Men bir folbinni bilaman. Fol ochib, dardingni aytib beradi. Kuf-suf qilib, har xil g'iyohlarga dam soladi. Choyga qo'shib eringga ichirasan. Ko'p o'tmay ering "gah" desang qo'lingga qo'nib, atrofingda girdi kapalak bo'ladi...

- Foyda berarmikan?  
- Sen uyog'ini o'ylama, ixlos - xalos, deyishadi-ku.

Anzirat Bashoratga Roziya folbining manzilini aytib xayrlashdi:

- Nasib bo'lsa, mushkuling oson bo'ladi, ko'p kuyinma. Anzirat uyga qaytgach,

Roziya folbinga qo'ng'iroq qildi:

- Allo!  
- Ey, Anziratxon bormisiz qoqqindiq? Kechagi ulushingizni olib qo'yibman, aylanay, ko'nglingiz to'q bo'lsin. Xo'sh bugun qanday bo'ldi?

- Bugun bir emas, naq uchtasi ilindi, bittasi laqqa. Manzilingizni berdim, boradi, og'zingizga siqqanicha so'rayverasiz, opajon, - Anzirat hirlinglab telefonni o'chirdi.

**Tog'aymurod SHOMURODOV.**

**MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 797 nusxada chop etildi. Buyurtma 161. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

**QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56**

**BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61**

**MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.**

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**Korxonalar manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

**Navbatchi muharrir:**

**G'.HASANOV.**

**Navbatchi:**

**T.SIDDIQOV.**

**Sahifalovchi:**

**B.ABDULLAYEV.**



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 1772010667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda

